

**BIOLOGIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL  
METODLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Jalolova Muattar Mamatxonovna**  
*Toshkent shahar Olmazor tumanidagi*  
*298-maktabning biologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada umumta'lim mактабларда биология дарсларидаги о'лланадиган педагогик технолоъгиyalarning о'лланлиши haqidagi fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, pedagogika, o'quvchi, o'qituvchi, dars, yosh avlod, biologiya, tushunchalar tahlili.*

Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarni bilim salohiyatining rivojlanishida interfaol usullardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Dars jarayonida o'quvchilarni diqqatini jalb qilish, darslikdan to'g'ri va maqsadli foydalanish, har bir o'tilayotgan yangi mavzu yuzasidan berilgan tushuncha va ta'riflarni o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Metodlar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra yaxshi samara beradi. O'quvchilar ongida saqlanib qoladi va ularning mustaqil fikrlashga undaydi. Bugungi kunda yoshlarga nisbatan davlat siyosati ham asosan yosh avlodni keng fikrli, jamiyat ravnaqi uchun munosib hissasini qo'sha oladigan, har tomonlama kuchli, bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqgan dars samaradorligini oshiradigan pedagogik texnologiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Tushunchalar tahlili metodi – o'tilgan o'quv predmeti yoki bo'lim barcha mavzularni o'quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

***Ushbu metodni biologiya darslarida keng qo'llash mumkin.***

Tushuncha	Mazmuni
Hujayra	
To'qima	
Organ	
O'rganizm	
Malekula	

Charxpalak metodi – ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi – o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- 1) O'quvchilarni guruhlarga ajratish;
- 2) O'quvchi mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
- 3) Tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
- 4) Har bir guruh a'zosi tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi;
- 5) Har bir guruh a'zosi o'zi ishlatgan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizib qo'yadi;
- 6) Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga charxpalak aylanmasi yo'nalishida almashtiriladi;
- 7) Yangi guruh a'zolari tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- 8) Har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;
- 9) Har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to'playdilar va o'z-o'zini baholaydilar.

Charxpalak texnologiyasidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin. Vazifa uchun zarur bo'lgan tarqatma materiallardan misollar keltiramiz.

### **1-tarqatma**

T/r	O'simlik turlari	Gulli o'simliklarning hayotiy shakllari			
		Daraxt	Buta	Yarim buta	O'tlar
1	Qarag'ay	+			
2	Izen			+	
3	Zirk		+		
4	Sachratqi				+
5	Na'matak		+		
6	Machin				+
7	Yalpiz				+

### **2-tarqatma**

T/r	Hayvon turlari	Sut emizuvchilar sinfi			
		Kemiruvchilar	Yirtqich sute nimizuvchilar	Dengiz sute nimizuvchilar	Tuyoqli sute nimizuvchilar
1	Kashalot			+	
2	Ondatra	+			
3	Tarpan				+

4	Arslon		+		
5	Ko'k kit			+	
6	Ko'k sug'ur	+			
7	Bo'ri		+		

Venn diagrammasi – ikki va uch jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash, qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. O'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Undan foydalanish bosqichlari quyidagilar:

-o'quvchilar ikki guruhgaga bo'linadi;

- plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo'yiladi;

- har bir to'g'ri fikrga qo'yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;

- qo'yilgan topshiriq bo'yicha guruhlarning har qanday to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlari bir o'quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flomasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib yuboriladi;

- fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach, o'quvchi va o'quvchilar hamkorligida to'g'ri va noto'g'ri javoblar aniqlanadi.

Biologik diktant o'yini – bu o'yin o'quvchilar bilim va malakalarining yozma nazorat shakli hisoblanadi. Biologik diktant savollariga javob yozish talab etiladi. Javoblar qisqa va aniq bo'lishi talab etiladi. Biologik diktant quyidagi shaklda tashkil etiladi.

1.Zamburug'larning vegetativ tanasi \_\_\_\_\_ deyiladi.

2. Zamburug'larning hujayrasida \_\_\_\_\_ bo'lmaydi.

3. Mog'or zamburug'inining sporalaridan yetiladigan a'zosi \_\_\_\_\_ deyiladi.

4. Zamburug'larning yashashi uchun \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ kabi omillar zarur.

5. Qalpoqchali zamburug'lar orasida \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ iste'mol qilinadi.

O'quvchilarga berilgan biologik diktant javoblari: 1.Sporangiy; 2. Xloroplast; 3. Gifa; 4. Harorat, ozuqa, namlik; 5. Qo'ziqorin va qo'zidumba.

Tushirib qoldirilgan so'zlar doskaga yozib qo'yiladi. O'quvchilar mos so'zlarni javob varaqasiga ketma-ket yozadilar.

Raqamli diktant – o'quvchi quyidagi atamalarni doskaga yozib qo'yadi.

1.Sporofil. 2. Antiridiy. 3. Spora. 4. Sporangiy. 5. Gematofit. 6. Bahorgi poya. So'ngra o'quvchi quyidagi savollarni o'qiydi. O'quvchilar doskadagi so'zlar orasidan shu savolga tegishli javobning raqamini yozadilar.

1.Erta bahorda dala qirq bo'g'imning ildizpoyasidan qanday poya o'sib chiqadi?

2. Spora beruvchi boshoqda halqa hosil qilib joylashgan shakli o'zgargan barglar nima deyiladi?

3. Qirqbo'g'imning sporangiylarida nima yetiladi?

4. Sporafilning ostki tomonida nima joylashadi?

5. Qirqbo'g'imning yerga tushgan sporalaridan nima unib chiqadi?

6. Sporalardan unib chiqgan erkak o'simtalarda qanday a'zo hosil bo'ladi?

Raqamli diktant quyidagi javoblar yordamida tekshiriladi: 6,1,3,4,5,2.

Zig-zag metodi – zig-zag siniq chiziq, ilon izi, egri-bugri ma'nolarini anglatadi. Darslarda zig-zag metodining mohiyati bir guruh tomonidan o'rganib bo'lingan o'quv materialining, hali uni o'rganmagan boshqa guruhga taqdim etilishidan iborat. Zig-zag metodining bir qancha afzalliklari bor. Masalan, ushbu usulni qo'llash orqali o'quvchilar bir jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini hosil qiladi va vaqtadan unumli foydalaniladi. Ushbu usulni ketma – ketligi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar bir qancha guruhlarga bo'linadilar, 3 yoki 6 ta;
- har bir guruhga mavzu bo'yicha bitta savol tarqatiladi;
- guruh a'zolari shu tarqatilgan savolni belgilangan vaqtida o'rganib oladilar;
- har bir guruhga yetakchi sardor saylanadi va ular tarqatilgan mavzuni o'rganishda, tushunishda guruhda yetakchilik qiladi;
- mavzular guruhda to'liq o'rganilib bo'lingandan keyin ular guruhlararo almashtiriladilar;
- endi ushbu savollar yangi guruhlarda o'rganiladi;
- bu savollar ham o'rganilib bo'lingach, ular yana almashtiriladi;
- guruhlarda barcha savollar o'rganilganda ushbu jarayonlar takrorlanadi;
- bir-birining bilimini baholash va o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruhlar bir-biriga ketma-ket ravishda savol berib boriladi;
- savol qaysi guruhga tashlangan bo'lsa, birinchi shu guruh o'quvchilarini javob berishlari mumkin, boshqa guruh a'zolari qo'shimcha qilib borishga haqli.

Moychechak metodi – doskaga moychechak gul 8 yaproqli qilib chiziladi yoki moychechak rasmi yopishtiriladi va har bir yaprog'iga raqam qo'yib chiqiladi. O'qituvchi tomonidan 8 ta mavzuga oid savol tuzib kelinadi. Moychechak yaprog'idagi har bir tanlangan raqam o'chirib boriladi. Guruh a'zolari tanlangan

raqamlardagi savollar o'qituvchi tomonidan o'qiladi. Guruh o'quvchilarini tomonidan javob beriladi.

#### *Namuna sifatida:*

	<p>1-savol. O'zbekistonda jag'jag' o'simligining nechta turi bor? Javob: 1 ta, Achambiti. 2. Karam qanday meva hosil qiladi? Javob: Qo'zoq meva 3. Qaysi daraxt sho'radoshlar oilasiga mansub? Javob: Saksovul daraxti 4. Lavlagi qanday meva hosil qiladi? Javob: Danakcha meva 5. Qaysi g'o'za oddiy g'o'za deb ataladi? Javob: Meksika g'o'zasi 6. Jaydari g'o'zaning vatani qaysi davlat hisoblanadi? Javob: Afrika 7. Qaysi o'simlikning gullari changlanib bo'lgach tuproq ichiga kirib meva hosil qiladi? Javob: Yeryong'oq 8. Qaysi o'simlik Yapon saforasi ham deb ataladi? Javob: Tuxumak</p>
--	---

Arra metodi – pedagogik amaliyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan

qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarilshi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o'quvchi guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha mutaxassisga aylanadi. Bu guruhlarda har bir qism mutaxassis bo'lishi shart, mazkur mutaxassislar o'zlari egallagan bilimlarini xuddi arra tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o'rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materiali mantiqiy ketma - ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

Biologiya darslari jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati shundaki, o'quv jarayonida barcha o'quvchilar bilim olish jarayoniga jalg qilinadi. Bu metodlar bilan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasi oshib boradi. Dars jarayonida o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi muhimdir. Mavzuni turli xil yangi pedagogik texnologiyalar yordamida tushuntirish o'quvchilarni dars jarayonida faol bo'lishga undaydi. O'quvchining anglash qobiliyati va o'qitishning samaradorligini oshirish uchun biologiya darslarini didaktik usullar bilan boyitish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Inatov Azizbek. Biologiya fanidan o'quv uslubiy qo'llanma. Kattaqo'rg'on 2019.
2. Tolipov O'.Q. Usmonboyeva M.U. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiylarasi. – T.: Fan, 2006.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008.
4. Ishanova B. Umumta'lim maktablarida biologiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar. O'zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari. Toshkent. 2021. 26-son.